

QO'QON XONLIGIDA SOLIQ VA MAJBURIYATLAR

**Qoraboyev Zohidjon Bahodir o'g'li,
Namangan davlat niversiteti, Tarix yo'nalishi talabasi**

E mail: Zohidjonqoraboyev782@gmail.com

Tel :+99895 900 70 90

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada, 1709-1876-yillarda O'rta Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo'lgan Qo'qon xonligida joriy etilgan soliq va majburiyatlar, ularning tartibi, aholining turli xil xashar majburiyatlarga jalb qilinishi masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, soliqlar, xashar, ushr, zakot, tanob, boj, yillik daromad, Xudoyorxon, Rossiya imperiyasi istilosi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье подробно рассматриваются налоги и повинности, введенные в Коканском ханстве, их порядок, вовлечение населения в различные хашарные повинности.

Ключевые слова: Налог, хашар, уshr, закят, танаб.

ANNOTATION. This article focuses on the taxes and duties introduced in the Kokand Khanate, their procedure, and the involvement of the population in various obligatory duties.

Keywords: Tax, obligatory, tithe, zakat, tanob.

Kirish. Qo'qon shahrida soliq va majburiyatlar tizimi, Qo'qon xonligidagi tizim bilan chambarchas bo'g'lanib ketgan, chunki u xonlikning poytaxti bo'lganligi tufayli soliqdan yig'ilgan boylik markazga oqib kelgan.

Asosiy qism. 1709-1876-yillarda O'rta Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo'lgan Qo'qon xonligida olinadigan soliqlar xalqqa juda og'ir bo'lib, ular yana turli xasharlarda, ayniqsa, yirik yer egalari, mulkdorlar uy, saroy, dalalarida, qurilish inshootlarida bepul qatnashishga majbur qilinardi. Shuning uchun ham xalqning noroziligi ortib borgan.

Qo'qon xonlari joriy qilgan soliq tizimi mamlakatning barcha aholisiga nisbatan birdek tartibda amal qilar edi. Xonlikda joriy qilingan soliq tizimi aholi ustidan o'rnatilgan nazoratning bir ko'rinishi edi. Xonlik viloyatlarining soliq to'lash imkoniyati mahalliy aholining shug'ullanadigan mashg'ulotlariga bo'liq edi.

Aholidan olinadigan soliqlar xonlarning kundalik sar-xarajatlarini qoplar edi. Xonlikda harbiy qo'shinlarning maoshlari ham aynan mamlakat aholisi to'laydigan soliqlardan qoplanar edi. Xonlikdagi barcha yerlar xonning mulki hisoblangan. Xonlar ushbu yerlarni amaldorlar, qarindoshlari, qabila boshliqlari va boshalarga

yerdan olinadigan soliqlarning bir qismini o'zida qoldirish sharti bilan hadya qilar edi.

A.L.Kunning ma'lumotlariga qaraganda, rasmiy soliqlar quyidagilardan iborat bo'lgan: natural xiroj yoki o'ndan bir soliq, zakot-tovarlardan olinadigan savdo solig'i va hayvonlar hisobidan olinadigan soliq, tarozi solig'i, daryodan o'tish uchun soliq, tuz boji yana, maxsus soliqlar ham bo'lgan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to'rtta turi mavjud bo'lib ular quyidagilar edi:

1. Xiroj yerlar – yer egasining xususiy yerlari.
2. Davlat yoki amlok yerlari – xonga qarashli yerlar-o'rmonlar, to'qaylar, yo'l va ko'priklar.
3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga beriladigan yerlar (suyurg'ol).
4. Vaqf yerlar – diniy tashkilotlar, ya'ni masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Qo'qon xonligida soliq yig'imiga alohida e'tibor qaratilgan. Mirza, amin, sarkor, oqsoqol kabilar soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar hisoblangan. Beklik mahalliy viloyat hokimi xazinasiga uchun yig'ilgan bo'lsa, xossachi xon xazinasiga foydasiga olingan.

Xon xazinasiga deyarli barcha soliqlar kelib tushardi, lekin ular asosan Qo'qon shahridagi va uning atrofidagi qishloqlardan yig'ilgan. Boshqa yerlardan esa xon xazinasiga faqat quyidagilar tushar edi:

1. Tovar va hayvonlardan yig'iladigan zakot.
2. Sirdaryo kechuvlaridan olinadigan boj.
3. Tuzdan.
4. Xossachi joylaridan olinadigan soliq.
5. Xon mablag'iga qurilib ijaraga berilgan do'kon, karvonsaroy, omborlardan yig'iladigan soliq.
6. To'y marosimlaridan yig'iladigan soliqlar; 7. Meros bo'lishdan yig'iladigan soliq.

Viloyat hokimlariga xiroj, tanobona soliqlari olish huquqi berilgan edi. Xudoyorxonning so'nggi hukmronlik davrida (1865-1875-y.) xon xazinasiga har yili bir yarim million rublga teng soliq tushar edi.

Sholi, bug'doy, jo'xori, va boshqa donli ekinlardan g'allaning beshdan bir qismi soliq sifatida olingan. Mevazor bog'lardan, uzumzor, sabzavot, paxta va boshqa o'simliklar ekiladigan yerlardan esa uning sathi maydoniga nisbatan soliq to'lanardi. Bunday yerlardan olinadigan soliq turi tanobona deb atalardi. Shu bilan

birga tanobona solig'i ekilgan narsalarni e'tiborga olgan holda uning miqdori bilan belgilangan.

Ushr yerlari – “zamini ushr” deb yuritilgan yerlardan xosilning o'ndan bir qismi miqdorida ushr solig'i ruhoniylar foydasiga undirilgan. Zakot – mahsulotdan olinadigan savdo solig'i yoki chorva mollari hisobidan olinadigan soliq bo'lib, daromadning qirقدan bir qismini tashkil etgan. Xonlikning savdogarlik sarmoyalari aniq bo'lmaganligi sababli, sharoitga qarab daromaddan zakot olingan. Arxiv hujjatlarida an'anaviy zakotdan tashqari – bo'roqi zakoti, elatiya zakoti, sarkarda kabilar haqida ma'lumotlar bor.

An'anaviy soliqlarga to'y marosimlardan, meros bo'linishidan, tarozidan, va shunga o'xshash soliqlar kirgan. Xonlikda bulardan tashqari yana turli xil favqulotda soliqlar mavjud bo'lib u tilla puli va mis puli, ulov puli, alaf puli, nafsona, mushtak, kafsan, yaksara va boshqalardir.

Soliqlar qat'iy belgilangan miqdorda hamda o'z vaqtida yig'ilishi shart bo'lsada, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu holat o'zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlarning turi va miqdori oshirib borilgan.

Umuman olganda, adabiyotlarda o'tin puli, kechuv puli, ko'mir puli kabi 90 dan ortiq soliqlar turi bo'lganligi keltirilgan. Lekin, xonlik aholisining barchasi shu soliqlarga birday tortilgan, deb bo'lmaydi.

1848-yilda bir Qo'qon tillosini Rossiya puliga – 12 rubl 80 kopeeykasiga tengligini hisoblaganda, Qo'qon xoni rublga nisbatida quyidagicha daromad olgan: Qo'qon – 6528000 rubl, Toshkent – 4646400 rubl, Qurama – 3852800 rubl, Xo'jand – 2905600 rubl, Namangan – 5811200 rubl, O'ratepa – 1318400 rubl, O'sh – 3800 rubl, Andijon – 320000 rubl, Tolmozor, Quva va Shahrixon – 2184500 rubl, Marg'ilon -1561600 rubl.

Umuman, Qo'qon xonligining barcha daromadi 29.166900 rublga teng bo'lib, bundan tashqari yana Qashg'ardan 128000 rubl, Isfara, Ching'oz va boshqa joylar, yana tamaki va rubl hisobida har xil boshqa mahsulotlar uchun viloyat hokimlari tomonidan yuboriladigan mablag' ham bor edi. Agarda shularni bera olmaydiganlar bo'lsa, ulardan pul yig'ilib, unga ishchi, arava, ot va shu kabilar yollangan.

Eng og'ir majburiyatlardan biri xashar edi. Chunki bunda aholi shaxsiy ishlaridan qoldirilib, tekinga turli xil og'ir qurilish va ta'mirlash ishlariga ishtirok etishga majbur etilgan. 1874-yil 10-iyunda maslahatchi Veynberg Turkmaniston general-gubernatori nomiga yuborgan ma'lumotnomasida bunday deb yozadi: – yo'llar o'tkazish, xon uylarini qurish, uning dala va bog'larida mehnat qilish uchun xonlikning barcha joylaridan ishchilar majburan haydab kelinadi, shu bilan birga tekinga ishlashlari zarur. Shunday hollar ham uchrab turadiki, agarda ishchi

kelmasa, uni kaltaklashadi va ayrimlarini o'limga mahkum qilishadi (bunday xollar 4, 5 marta yuz berdi). Ba'zi bir paytlari xon irodasiga bo'ysunmagan bechoralarni tiriklayin ko'mganlar.

Majburiy ishlar urushga tayyorgarlik yoki dushmandan himoya qilish vaqtlarida ko'proq bo'lgan. Birinchi holda bu majburiyat aholi uchun og'ir bo'lib tushgan, chunki ko'pincha boy yer egalari manfaati yo'lida behuda o'zaro urushlar uchun mehnat qilinar va aholi katta qismi qurbon bo'lar edi. Ikkinchi yo'lda esa vatanparvarlik harakteriga ega edi, chunki bunda o'z vatanini, oilasini qilishga qaratilgan. Bu holda aholi ko'tarinki ruh bilan ko'pincha ixtiyoriy ishtirok etadi. Bunga 1842-yili Qo'qon shahrini Buxoro amiri amir Nasrullodan himoya qilish uchun shahar atrofini devor bilan o'rash va qo'rg'onlar qurish bilan bog'liq ishlar yaqqol misol bo'la oladi.

“Ansob as-salotin...” nomli tarixiy qo'lyozmada shunday satrlarni ko'rish mumkin: “Xudoynazar amin va Aziz amin va Rahmquli – choyfurush va o'n ikki og'aliklar jamoat bo'lib, atrof qo'rg'oni nayza birlan o'lchab mahalla, mahallaga muvofiq ahvol berdilar”. Majburiyat sug'orish ariqlarini, qal'alarni va shu kabilarni qurishda yuklatilgan. Ammo aholi uchun eng og'ir majburiyatlardan biri erkak va yigitlarning o'zaro urushlarda majbur etishi edi.

Xulosa. Shunday qilib, Qo'qon xonligida (shu jumladan Qo'qon shahrida ham) aholi katta miqdorda soliq to'lovlar va majburiy ishlarda qatnashar edi. Oqibatda aholining ko'pchiligini tashkil qiluvchi kambag'al oilalarga juda og'ir bo'lgan, ayrimlari shu sababli tilamchilik bilan kub kechirshga majbur edi. Ayniqsa, Xudoyorxon oxirgi hukmronlik yillarida aholining turmush darajasi chidab bo'lmas darajada yomonlashdi. Qo'qon xonligi tarixida eng katta va uzoq davom etgan xalq qo'zg'olonlari sodir bo'ladi. Bu qo'zg'olon tarixga “Po'latxon qo'zg'oloni” nomi bilan kiradi. Natijada, Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Qo'zg'olon rahbarlari – Abdurahmon Oftobachi va Po'latxon qo'lga olinadi. Abduraxmon Oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav guberniyasiga, so'nggi Qo'qon xoni Nasriddinbek esa Vladimir guberniyasiga surgun qilinadi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150 yildan ko'proq vat mobaynida hukm surgan Qo'qon xonligi tugatilib, uning hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабабеков Х. Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв.) – Т., Фан, 1990. –118 с.
2. Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. – Т., Фан, 1996. – 238 б.

3. Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Тошкент: “YANGI NASHR”, 2014. – 173 б.
4. Мирзо Олим Маҳдум Хожи. Тарихи Туркистон / Маъсул муҳаррир З. Чориев, сўзбоши ва изоҳлар Ш. Воҳидов, араб тилидан табдил Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова, кўрсаткичлар Ш. Воҳидов ва Д. Сангирова. – Т., Янги аср авлоди, 2008. – 242 б.
5. Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус – салотин ва таворих ул-ҳавоқин / Нашрга таёрловчи А. Матғозиев, М. Усмонова. – Т., 1995. – 128 б.
6. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2014.